

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FILOLOGIYA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOVA NAZOKAT RAXIMOVNA**

**FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA LINGVISTIK TERMINLARNING LISONIY  
HUSUSIYATLARI VA O‘QUV LUG‘ATI TUZISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

**Filologiya fani bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philology**

**Xudayberganova Nazokat Raximovna**

Fransuzcha-o‘zbekcha lingvistik terminlarning lisoniy hususiyatlari va o‘quv  
lug‘ati tuzish tamoyillari.....5

**Худайберганова Назокат Рахимовна**

Лингвистические особенности французско-узбекских лингвистических  
терминов и принципы составления словаря.....21

**Khudayberganova Nazokat Raximovna**

Linguistic features of French-Uzbek linguistic terms and principles of compiling a  
dictionary.....41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....48**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI FILOLOGIYA  
FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI  
(PhD) ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**XUDAYBERGANOVA NAZOKAT RAXIMOVNA**

**FRANSUZCHA-O‘ZBEKCHA LINGVISTIK TERMINLARNING LISONIY  
HUSUSIYATLARI VA O‘QUV LUG‘ATI TUZISH TAMOYILLARI**

**10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.1.PhD/Fil1179 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.urdu.uz](http://www.urdu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatov Abdi Eshonqulovich,**  
filologiya fanlari doktori, professor.

**Rasmiy opponentlar:**

**Cho'ponov Otanazar Otojonovich,**  
filologiya fanlari doktori, dotsent,

**Djafarova Dildora Ilxomovna,**  
filologiya fanlari doktori, dotsent.

**Yetakchi tashkilot:**


**O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 raqamli Ilmiy kengashning "6" iyul 2023 yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (+99862) 224-67-00; faks: (99862) 224-67-00; e-mail: fil-ik.urdu.uz.


Dissertatsiya bilan Urganch davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (681 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel: (99862) 224-67-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "26" iyun kuni tarqatildi.  
(2023-yil "26" iyun dagi 18 raqamli reestr bayonnomasi).



  
**Z.Do'simov,**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor,

**S.S.Atajanov,**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,

  
**A.D.O'razboyev,**  
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), professor (v.b.).

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligining hozirgi davr rivojlanish bosqichida tilshunoslik terminlarining hususiyatlari va terminologik lugʻat tuzish masalasi, uning ijtimoiy xususiyatlari muammosi tilshunos olimlar oʻrtasida qizgʻin bahs-munozaraga sabab boʻlmoqda. Lingvistik terminlarni oʻrganish va ulardan lugʻat tuzish tamoyillarini ishlab chiqish va tadqiq qilish kelajak avlod uchun har tomonlama foydali boʻlib, bu til oʻqitishning oʻquv-uslubiy metodik taʼminotida muhim rol oʻynashi shubhasizdir. Zero, barcha sohalarda olib borilayotgan va endi olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar jarayoni til vositalari yordamida yosh avlodga yetkazib berish orqali amalga oshiriladi. Bu esa tilshunoslik fani oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida qadimgi davrlardan lingvistik terminlar maqomini belgilash va lingvistik terminlar lugʻatini tuzish muammolari hozirgi kungacha oʻrganilib, baʼzi muammolar oʻz yechimini topgan boʻlsa, baʼzilari esa haligacha muammoligicha qolmoqda. Keyingi davrlarda terminlarga alohida eʼtibor qaratilishi lingvistik terminologiya boʻyicha oʻquv lugʻatlari shakllanishi va taraqqiyotini taʼminladi. Lingvistik terminlar boʻyicha anchagina ishlar amalga oshirilgan, ammo fransuz tilini oʻrganuvchilar, talabalar, magistrlar, umuman tadqiqotchilarni oʻqish va oʻqitish jarayonlarida keng qoʻllaniladigan tilshunoslik terminlarining har ikkala tilda berilishini oʻrganib chiqish, ular asosida oʻquv lugʻati tuzish tamoyillarini ishlab chiqish tilshunoslikning dolzarb muammolaridandir. Fransuz va oʻzbek tillaridagi lingvistik terminlar tahliliga doir tadqiqotlar muayyan xalqning milliy til xususiyatlarini, ularga xos universal jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Maʼlumki, soʻnggi yillarda mamlakatimiz tilshunosligida terminologik muammolarni oʻrganishga qiziqishning keskin oʻsishi terminologik tadqiqotlar hajmining kengayishiga olib kelmoqda. Termin tushunchasini tushuntirish bilan bogʻliq muammolar, nafaqat turli sohadagi ilmiy bilimlarni tilshunoslikka yaqinlashtiradi, balki turli sohadagi professional mehnat hamda ishlab chiqarishdagi amaliyotlarni ham yaqinlashtiradi. Hozirgi kunda terminlarga boʻlgan eʼtibor kundalik ilmiy mashgʻulot, muntazamlilik talab etadigan ish sifatida qabul qilinmoqda. Ammo tan olish kerakki, tilshunoslikda boshqa sohalar terminologiyasi bilan faol shugʻullanib, amaliy va nazariy jihatdan ehtiyoj zarur boʻlishiga qaramay, lingvistik terminologiyaga kam eʼtibor berilmoqda. Katta miqdordagi yangi terminlar soni tilshunoslik doirasida vujudga kelayapti va shu bilan birga jadal surʼatlar bilan rivojlanmoqda. Aynan shu terminlarning vujudga kelishi va ularni lugʻatlar tuzish nuqtai nazaridan oʻrganish tilshunoslik fani uchun maʼlum zaruriyat mavjudligini koʻrsatadi.

Lugʻatlarda tilning leksik boyligi qayd qilinadi, u voqelikni anglashni, oʻtmishni, bugungi kunni va kelajakni koʻra olishni aks ettiradi, chunki soʻz – tilning asosiy elementi, unda inson tafakkur jarayonining mazmuni oʻz aksini topadi. Mamlakatimiz hayotida barcha sohalarda ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ilm-fan sohasiga oid davlat siyosati doirasida belgilangan “...ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini ragʻbatlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”

kabi strategik vazifalar<sup>1</sup> o'zbek tilshunosligida lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzish borasida chuqur izlanishlar olib borishni kun tartibiga qo'ymoqda. Yurtimizda chet tillari, ayniqsa, fransuz tilini o'rganishga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bois bugungi kunda fransuzcha-o'zbekcha o'quv lug'atlari zamonaviy frantsuz tili doirasida mazkur sohani tadqiq qilish muhim shartlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF- 4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojl antirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Ilmiy-tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Terminologiya muammolari o'tgan davrlardan to bugungi kungacha olimlar diqqat etiborini tortib kelmoqda. Shuning uchun terminologiya sohasi bo'yicha ko'plab tillarning, jumladan fransuz va o'zbek tillarining ham muayyan sohalar bo'yicha terminologik tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mavjud. Tilshunoslikda fransuz tilidagi lingvistik terminlar bo'yicha fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua<sup>2</sup>, F.Bryuno, Sh.Bryuno, A.Martine, J.Munen, Sh.Balli; rus tilshunoslaridan L.V.Sherba, A.A.Reformatskiy, A.A.Slyusareva<sup>3</sup>, Y.V.Rojdestvenskiy<sup>4</sup> kabi olimlar izlanishlar olib borganlar. V.N.Yarseva<sup>5</sup>, O.S.Axmanova<sup>6</sup>, D.E.Rozental va M.A.Telenkovalar lingvistik terminlar lug'atlarini yaratgan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida akademik A.Hojiyev<sup>7</sup>, T.Aliqulov, N.Mahkamov va I.Ermatovlar tilshunoslik terminlari lug'atini nashrdan chiqardilar. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarga jiddiyoq e'tibor qilinsa, ijtimoiy gumanitar soha terminlari nisbatan kam o'rganilganligi ko'zga tashlanadi. Biz tadqiqot obyekti qilib olgan tilshunoslik terminlari esa slavyan, roman va german tillarida nisbatan kam o'rganilganligini ko'rsatadi. Shuning uchun falsafa, madaniyat

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2017 йил, 8 февраль. – № 28 (6722)

<sup>2</sup> Dubois J. Dictionnaire de linguistique. – Paris : Librairie Larousse, 1973. p 576

<sup>3</sup> Слюсарева Н.А. Терминология лингвистики и метаязыковая функция языка. Вопросы языкознания. М.: Наука. 1979, №4, стр.- 69-76

<sup>4</sup> М.: 1983; Рождественский Ю.В. О смысловой систематизации терминов. – М., 1972; Прохорова В.Н., Русская терминология (лексико-семантическое образование).М., 1988; Татаринов В.А. Теория терминоведения. Зтт. – М., 1996;

<sup>5</sup> Глав.ред. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. М.:1990

<sup>6</sup> Ахманова О.Словарь лингвистических терминов. М.: Энциклопедия 1966

<sup>7</sup> Хожиев А. "Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати" Тошкент. 1985 Нишонов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсийтипологик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дисс. автореф. – Т., 2009. – 25 б.;

va ma'naviyat, etika, estetika, din va tasavvuf, ayniqsa, tilshunoslik terminlarini o'rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi. **Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Urganch davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Qiyosiy tilshunoslikning dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlarning tarkibiy-mazmuniy asoslarini aniqlash, lingvistik terminlar o'quv lug'atini tuzish tamoyillarini ishlab chiqishdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlarning lisoniy xususiyatlarini aniqlash;
- tilshunoslik terminlarining fransuz tilidan o'zbek tiliga berilish yo'llarini o'rganib chiqish;
- tilshunoslik terminlarini terminografiya talablari nuqtai nazaridan tavsiflab berish;
- fransuzcha-o'zbekcha lug'atlardagi yutuq va kamchiliklarni umumlashtirish;
- fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzish tamoyillarini ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan tamoyillar asosida fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar o'quv lug'ati yaratish;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida fransuz va o'zbek tilidagi lingvistik terminlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** fransuz va o'zbek tillarida lingvistik terminlarining struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash va lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzish tamoyillari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada leksikografik, morfo-semantik, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

–Lingvistik terminologiyaning tilda muloqot qiluvchilar uchun zarur bo'lgan kommunikativ xususiyatlari va so'zlar yasashida muhim sanalgan derivativ xarakteri asoslangan;

–tahlilga tortilgan tilshunoslik terminlari asosida terminografiyaning aniqlik, mantiqan izchillik, tizimlilik, adabiy til me'yorlari talablariga mos ekanligi dalillangan;

–terminlarning birma'nolilik va ko'pma'noliligi, neytral va emotsionalligi, kontekstga bog'liq va bog'liq emasligida namoyon bo'ladigan ichki qarama-qarshiliklarga sabab bo'lishi aniqlangan;

–fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzishning fonetik va grafik xususiyatlarni ko'rsatib berish, so'zning grammatik jihatlarini hisobga olish, leksik birliklarning ekvivalentligini aks ettirish, amenizm, ya'ni chet tilidan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning leksikografik maqomini belgilash, shuningdek tematik, chastotalilik kabi tamoyillar ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan;

fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar o'quv lug'atida ko'pma'noli so'zlarning semantik xususiyatlari ochib berilgan va fransuz tilidagi lingvistik

terminlarning ma'nolari o'zbek tiliga qay tarzda berilishi aniqlangan hamda bu lug'at til o'rganuvchilar uchun muhim manba ekanligi dalillangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

–fransuz va o'zbek tilshunoslik terminologiyasining shakllanishi, yuzaga kelish omillari, taraqqiyot bosqichlari, tarkibi aniqlangan;

–terminologiya tizimidagi struktur-semantik, shakliy-mazmuniy jihatlari dalillangan;

–lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzish tamoyillari ishlab chiqilgan;

–mavjud o'quv lug'ati tuzish tamoyillari asosida fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar o'quv lug'ati yaratilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslikning tahliliy metodlari asosida mavzu yuzasidan ilmiy asoslangan hulosalar keltirilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va muammoning aniq qo'yilgani nazariy ma'lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan olingani, olib borilgan tahlillar leksikografik, morfo-semantik, qiyosiy-chog'ishtirma usullar asosida olib borilgani, OAK tasarrufidagi maxsus jurnallarda hamda horijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, hulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar fransuz va o'zbek tilshunosligi kesimida lingvistik terminlarining tuzilishi va talqini haqida tizimli tasavvur hosil qilishi, terminlarini tavsiflash, situativ sharoitini belgilash haqidagi bilimlarni boyitishi hamda umumilmiy terminologiyani o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lishi mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ilmiy natijalardan oliy ta'lim tizimida terminologiya, terminografiya, leksikologiya, leksikografiya nazariyasi fanlaridan maxsus kurs o'tishda, shuningdek, ushbu fanlar bo'yicha darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi, shuningdek, tadqiqotning xulosa va materiallaridan fransuz va o'zbek tillarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda, kurs va malakaviy bitiruv hamda o'quv qo'llanma va magistrlik ishlarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Jumladan, fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar bo'yicha qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va olingan xulosalardan tilshunoslikning "Amaliy va nazariy grammatika", "Leksikologiya", "Amaliy va nazariy fonetika", "Tilshunoslikka kirish", "Tilshunoslik nazariyasi" kabi fanlar integratsiyasi va maxsus kurslarni o'qitishda ham qo'llanishi mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fransuz va o'zbek tillarida lingvisik terminlarning lisoniy xususiyatlari o'rganilib ulardan lug'at tuzish tamoyillarining tadqiqi yuzasidan erishilgan ilmiy natijalar asosida:

–Fransuz va o'zbek tilshunoslik terminlarining tadqiqi jarayonida olingan ilmiy natija va xulosalar asosida: fransuz va o'zbek tilshunoslik terminlarining amalda bajarib kelayotgan vazifalari, ularning yuzaga kelish asoslari, dinamik xarakteri, nutq jarayonida va lug'atlarda qo'llanishi, уларда yangi ma'nolar paydo bo'lishi haqida qilingan xulosalardan ERASMUS+ dasturining 561574-EPP-1-2015-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP-ECCUM: "Establishment of computing Centers and



Curriculum Development in Mathematical Engineering Master programme” mavzusidagi grant loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Urganch davlat universitetining 2022-yil 10-martdagi 06-55/22-son ma’lumotnomasi). Natijada muloqot jarayonida terminosistemadan foydalanishga oid yangicha qarashlar yuzaga kelgan, ham fransuz, ham o‘zbek lingvistik terminosistemasini nisbatan zamonaviy nazariyalar bilan boyitib, soha terminlarining leksik-semantik, struktur-semantik hamda pragmatik xususiyatlarini genetik-etimologik nuqtai nazardan talqin qilish imkoniyatini bergan;

–lingvistik terminlar o‘quv lug‘atlarining muhimligi, lingvistik terminologiyaning tilda muloqot qiluvchilar uchun zarur bo‘lgan kommunikativ xususiyatlari va so‘zlar yasashida muhim sanalgan derivativ xarakteri va o‘quv lug‘ati tuzish tamoyillariga doir xulosalardan 2022-yil 4-mart kuni Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi Xorazm 24 teleradiokanali ijodkorlari tomonidan efirga uzatilgan “Yoshlar vaqti” dasturida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining Xorazm viloyati teleradiokompaniyasi 2022-yil 11-martdagi 05/6/67-son ma’lumotnomasi). Natijada tadqiqotda aks ettirilgan lingvistik terminlarning xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi, lingvistik terminlardan o‘quv lug‘ati tuzish muammolariga doir tadqiqotlarning bugungi kunda ilmiy ahamiyati, o‘zbek va fransuz leksikologiyasi hamda tarjimashunosligida lingvistik terminlar o‘quv lug‘atlarining zarurati to‘g‘risidagi ilmiy - tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lindi.

Fransuz va o‘zbek tillari lingvistik terminlarining terminologik maydondagi tizimlilik, ularning tarkibiy guruhlaridagi vazifalari, yasash usullari kabi lingvistik xususiyatlari hamda ularning tilshunoslikdagi terminologik ahamiyatini belgilashga oid xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-F1-G003 “Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so‘z yasalishi” (2017–2020) mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 28-sentabrdagi 372/1-son ma’lumotnomasi). Natijada muloqot jarayonida terminosistemani zamonaviy nazariyalar bilan boyitib, soha terminlarining leksik-semantik, struktur-semantik hamda pragmatik xususiyatlarini genetik-etimologik nuqtai nazardan talqin qilish, lingvistik terminlar o‘quv lug‘ati tuzish tamoyillari borasidagi ilmiy xulosalar loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

Tilshunoslik sohasiga oid terminlarning o‘quv lug‘ati modelida lingvistik terminlarning joylashish tartibi va o‘quv lug‘ati yaratishda terminlarni talqin qilishda ishlab chiqilgan mezon va tamoyillardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-F8-004 “Qoraqalpoq adabiy tili tarixi va hozirgi qoraqalpoq tilida qo‘shma gaplarning struktur-semantik turlari” mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda foydalanilgan. Fransuz va o‘zbek tillaridagi tilshunoslikka oid terminlarning muqobilari, tildagi muqobilni qo‘llash usullari, ko‘p komponentli terminlarning berilishida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining

2022-yil 28-sentabrda 371/1-son ma'lumotnomasi). Natijada lingvistik terminlarning lisoniy xususiyatlari, ularning terminografiya talablari nuqtai nazaridan tavsifi, lingvistik terminlar o'quv lug'ati tuzish tamoyillari haqidagi ilmiy xulosalar ilmiy tadqiqot ishlari mazmunini takomillashtirishda amaliy yordam berdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsion tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro miqyosda, 3 ta OAK tasarrufidagi ilmiy jurnallarda hamda 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda, 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida va 1 ta o'quv qo'llanma va 1 ta uslubiy qo'llanma ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, Xalqaro jurnallarda 2 ta, 4 ta xorijiy va 2 ta respublika konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida va 1 ta o'quv qo'llanma va 1 ta uslubiy qo'llanma ko'rinishida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 152 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Terminlar tahlilining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi termin va nomenklatura tushunchalari, terminlarning o'ziga xos xususiyatlari, lingvistik terminlar klassifikatsiyasi va Jahon tilshunosligida lingvistik terminologiya paydo bo'lishi kabi masalalarga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, fanda terminlar mohiyati haqidagi masalalar bo'yicha yagona fikr mavjud emas. Bunda ayrim darajadagi ishlar hamda faktik materiallar shundan guvohlik beradiki, har bir mutaxassis, har bir muallif terminga o'zining xususiy, shaxsiy ta'rifini beradi. Masalan, N.P.Kuzkin terminga quyidagicha ta'rif beradi: “Termin – terminologik leksika tarkibidan ongli ravishda tanlab olingan, oldindan talablar asosida shakllantirilgan, spetsifik obyektni ifodalaydigan, klassifikatsion tizimni aniqlaydigan va oxirgisi moddiy obyektlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadigan umumqabul qilingan yoki me'yoriy so'zdir”<sup>8</sup>. V.V.Vinogradov G.O.Vinokurdan farqli ravishda terminning asosiy xususiyati nomlash emas, balki ta'riflash deb hisoblaydi: “Barchaga ma'lumki, so'z atash, nomlash yoki ta'riflash vazifasini bajaradi, bu degani, aniq ifodalash vositasi hisoblanadi, shunda u oddiy

---

<sup>8</sup> Кузькин Н.П. .К вопросу о сущности термина. Л.: 1962, вып 4, №20, стр.136-146

belgi yoki mantiqiy ta'rif vositasi hamda u shundagina ilmiy termin bo'la oladi"<sup>9</sup>. G.O.Vinokur terminning xarakter xususiyatini termin bo'lmagan so'zdan farqli ravishda u nom vazifasini bajarishini shunday belgilaydi: "So'zning termin sifatida fanga kirib kelishi va predmetni nomlashi uning asosiy vazifasidir"<sup>10</sup>. Bunga A.A.Reformatskiy juda to'g'ri e'tiroz bildiradi, nom vazifasi terminning farqli xususiyati bo'la olmaydi, chunki u so'zga xosdir. G.O.Vinokurning ratsional nazariyasi termin bilan termin bo'lmagan so'zlarni ularning ma'lum vazifalarni bajarib kelish xususiyatiga, ya'ni funktsional tabiatiga bog'liq ekanligi bilan bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, terminning termin bo'lmagan so'zdan farqi ma'lum ma'noda munozaraligicha qolmoqda. Terminning shunday xususiyatlari ta'rif, tushuncha vazifasining bajarishi, tizimliliigi, ekspressiv bo'yoqdorligi hamda bir ma'noliligidir, mazkur leksik birliklarning boshqa muhim tavsiflaridan biri – uning hosilaligidir. Terminning asosiy xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: 1) insoniyat faoliyatining maxsus sohasida termin qo'llaniladi; 2) mazkur sohada tizimning ifodalanishi bilan termin o'zaro munosabatda bo'ladi; 3) termin ixtisoslashtirilgan ma'noga egalik qiladi. Termin maxsus, ilmiy tushunchalari aloqalari bilan ixtisoslashtirilgan ma'noga ega bo'ladi. Oxirgi holat ko'pchilik tilshunoslar tomonidan e'tirof etiladi<sup>11</sup>. Barcha tillardagi tilshunoslik terminlari o'zining tizimliliigi, ularga berilgan ilmiy izohning mavjudligi, aksariyat terminlarning bir ma'noliligi (monosemantikligi) va uslubiy qo'llanilishi betarafligi bilan boshqa til birliklaridan ajralib turadi. Termin ko'proq signifikativ ma'noga, nom esa denotativ ma'noga egalik qiladi, modomiki, nom terminga qaraganda ko'proq aniq tushunchalar bilan aloqada bo'ladi. Termin nominativ hamda definitiv funksiyalarni bajaradi, nom esa faqatgina nominativ funktsiyani bajarish bilan chegaralanadi. Lingvistik terminlarni shakllantirishning yetakchi usullaridan biri – terminlarni shakllantirishning semantik usuli hisoblanadi. Bunda umumadabiy so'zlarning terminlashtirish sodir bo'ladi va ularning ma'nolari maxsuslashtiriladi. Maxsuslashtirishning mazmun - mohiyati shundaki, unda so'z maxsus tushuncha bilan bog'liq holda muvofiqlasha boshlaydi va bu muvofiqlik terminni aniqlashda mustahkamlanib borilgan. Leksikologik va semasiologik terminologiyada terminlar hosil qilishning semantik natijalari hisoblanadigan uchta guruh terminlar ajratilganligi aniqlandi.

Tahlil qilinayotgan terminologiyada terminlarning bir ma'nolilik tendensiyasi umuman olganda saqlanib qolgan, shu bilan birga, ta'kidlash joizki, bir ma'noli bo'lmagan, ya'ni ko'pma'noli terminlar miqdori aytarli darajada mavjuddir. Ko'pma'noli terminlarning quyidagi ko'rinishlari alohida ajratilgan:

a) metonimik ko'chishlar natijasida rivojlangan ko'pma'noli terminlar; b) tilning ichidagi tizimlararo ko'pma'nolilik; v) terminlar talqin qilinishidagi

<sup>9</sup> Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова. –В кн.: Избранные труды. Лексикология и лексикография. М.: Наука, 1977. стр.162-189.

<sup>10</sup> Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии. – М.: 1939. стр.3-54.

<sup>11</sup> Бархударов С.Г. О значении и задачах научных исследований в области терминологии. – М.: Наука, 1970. стр.7-10; Бурляй С.А. Взаимодействие терминологической и общеупотребительной лексики в современном французском языке. – М.,1974. стр.35; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. стр.246.

variantdorlik.

Tadqiq etilayotgan sohada, ayniqsa, keng tarqalgan noaniqlik ko‘rinishlaridan biri – terminlar talqin qilinishidagi variantdorligidir, buning sabablari quyidagilar hisoblanadi: a) terminlarning odatiy xarakteri (tavsifi); b) tavsiflanayotgan obyektning xususiyatlari; v) obyektning o‘rganilgan darajasi va erishilgan bilimlarning darajalari bilan terminlar aloqalari; g) tavsiflanayotgan obyektga munosabati bo‘yicha tadqiqotchilarning turlicha qarashlari va pozitsiyalari. Terminlar talqin qilinishining variantdorligi nazariya bilan terminlar aloqalarining natijasi hisoblanadi. Oxirgisi terminlarning ta’riflari orqali amalga oshiriladi. Tahlil qilinayotgan terminologiyada terminning nazariya bilan o‘zaro muhim aloqasi asosiy hisoblanadi.

Dissertasiyaning **“Leksikografiya va uning asosiy tushunchalari”** nomli ikkinchi bobida leksikografiya lingvistik fan sifatida, o‘quv leksikografiyasining muammolari va vazifalari, fransuz-o‘zbek leksikografiyasi tahlili mazmuni tavsiflangan.

Leksikografiya fanining tutgan o‘rni, eng avvalo, lug‘atlarning muhim ijtimoiy roli, jamiyatning madaniy hayoti uchun leksikografik ishlarning katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi bilan til sohiblarining eng keng ommasiga mo‘ljallanganligi bilan belgilanadi. Leksikografiyada tilshunoslikning ijtimoiy-tarixiy va ijtimoiy-pedagogik jihatlari ayniqsa aniq ajralib turadi. Mashhur ispan leksikografi X.Kasaresning fikricha, lug‘at adabiy tilning normativ prinsiplarini o‘rnatib, o‘qituvchi rolini bajarishi kerak<sup>12</sup>.

L.V.Sherbaning bildirgan fikriga ko‘ra, “Yaxshi va maqsadga muvofiq tuzilgan lug‘atlarga haddan tashqari ehtiyoj borgan sari his qilinadi”<sup>13</sup>. Hozirgi kunda tilshunoslikning til haqidagi fan sifatida, leksikologiyaning so‘zlar haqidagi fan sifatida, leksikografiyaning so‘z materialini tasniflash va uni lug‘atda berish usullari haqidagi fan sifatida ular o‘rtasidagi integratsiya yaqqol kuzatilmoqda. Leksikografiya boshqa lingvistik fanlar bilan bevosita bog‘liq, ammo, shunga qaramasdan u ko‘p hollarda u yoki bu muammolarni mustaqil hal qiladi.

Lug‘atning til haqidagi fanning rivojidagi o‘rmini ta’riflab, polshalik olim V.Doroshevskiy yozgan edi: “Agar biz yuqorida shakllantirilgan ta’riflar bo‘yicha cheklanib qolsak, ularga ko‘ra leksikografiya – bu “lug‘atlarni tuzish, lug‘atlarni ishlab chiqish metodlari haqidagi fan”, leksikologiya esa – bu “tilshunoslikning so‘zni ularning ma’nolari va qo‘llanilishlari nuqtai nazaridan alohida bo‘limi; lug‘at tarkibi haqidagi fanning, ya’ni leksikografiyaning nazariy asosidir. Bundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, birinchidan, nomlari tilga olingan ikkala fan tilshunoslik bilan jiddiy bog‘langan; bundan tashqari, tilshunoslikning rivoji bevosita leksikologik va leksikografik ishlarning rivojiga bog‘liq bo‘lishi mumkin; ikkinchidan, har qanday inshootda fundamentning mavjudligi uning ustiga nima qurilishi bilan oqlanadi, shuning uchun ham leksikografiyani tilshunoslikning fundamenti vazifasini bajaruvchi fan sifatida tushunish mumkinki, qaysidir ma’noda leksikologiyaga nisbatan yuqori o‘rinda turadi, chunki natijalar niyatga qaraganda muhimroq va

<sup>12</sup> Касарес Х. Введение в современную лексикографию. - М.: 1958. стр.354.

<sup>13</sup> Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. – Языковая система и речевая деятельность. Л.: Наука, 1974. стр.265-303.

amaliy natijalar bo'yicha nazariy asoslarni baholash mumkin"<sup>14</sup>. Shu bilan birga, hamma ham lug'atlardan foydalanishni bilavermaydi. Lug'atdan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish oson ish emas. Bu uchun zarur bo'lgan shartlarning biri ushbu tildagi mavjud lug'atlarning turlari va ko'rinishlarini bilish hisoblanadi.

"O'quv lug'atlarini yaratishning nazariyasi va amaliyotidan tashqari muhokama qilinayotgan fanning yurisdiksiyasi, shuningdek, o'quv leksikostatistikasining nazariyasi va amaliyotiga, lug'at tipidagi qo'llanmalarni yozishning nazariyasi va amaliyotiga hamda darsliklarning lug'atlarida leksika bo'yicha qo'llanmalarni yozishning nazariyasiga tadbiriq qilinadi"<sup>15</sup>.

Ammo o'quv leksikografiyasining muammolarini qanchalik keng belgilamaylik, uning asosiy vazifasi o'quvchilarni va talabalarni chet tiliga o'qitish jarayonini leksikografik ta'minlashdan iboratdir. O'quv lug'atlarining ham tipologiyasi (ilmiy tasnifi), ham so'zlar ma'nolarining lug'atlardagi ta'rifi va qo'llanilishi shu bilan izohlanadi. Hozirgi kunga kelib leksikani o'rganishga tizimli yondashuv qaror topdi. Leksikografiyada bunday yondashuv tilni parametrlash g'oyasida, tilning asosiy parametrlarini leksikografik (lug'aviy) aks ettirishda to'liq amalga oshirishini ta'minladi.

"Hozirgi so'z qurilishining xususiyatlarini va jahon leksikografiyasining umumiy harakatini ko'rib chiqib, uning rivojlanishining asosiy yo'lini tilni leksikografik parametrlash tomon moyillik deb xarakterlash mumkin. Gap shundaki, jahon leksikografik amaliyotida til strukturasining barcha darajalarini o'rganishning natijalarini lug'at shaklida mustahkamlash, mazmuniy va shakliy plandagi barcha til birliklarini va ular orasidagi munosabatlarni leksikon ko'rinishida taqdim qilish, xilma-xil til hodisalarini lug'atga ekstrapolyasiya (singdirish) qilishga aniq intilish ko'rinishda. Bundan tashqari, aytish mumkinki, tasviriy tilshunoslikda tilning har qanday darajasini o'rganishning jo'shqinligi lug'atning tegishli elementlardan, protseduralardan, munosabatlardan qurilishi bo'ladi"<sup>16</sup>.

Lesikografik parametr tushunchasi Y.N.Karaulov tomonidan kiritilgan.<sup>17</sup> O'sha ishning o'zida lug'at maqolalari parchalarining tipi ham ko'rsatiladi, ularning majmui lug'atlarning o'xshash guruhini aynan tenglashtiradi.

Ta'kidlash kerakki, har qanday chet tili – milliy va milliy – chet tili leksikografiyasi bir tekisda rivojlanmaydi. Masalan, fransuzcha-o'zbekcha leksikografiya yetarli darajada ishlab chiqilmagan hisoblanadi, bu bizni ushbu muammoga murojaat qilishga undadi. Ushbu bo'lim fransuzcha-o'zbekcha leksikografiyaning o'ziga xos muhokamasi hisoblanadi. Ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilariga mo'ljallab, respublikamizda birinchi marta tuzilgan "Fransuzcha - o'zbekcha lug'at" "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan 1973-yilda nashr etilgan. Bu lug'at, xususan, maktab pedagogikasiga doir so'zlarni qamrab olganligi va hajm jihatdan kichik bo'lganligi tufayli hozirgi kunda yanada mukammalroq, davr

<sup>14</sup> Дорошевский В. Элементы лексикологии и семиотики. / Авториз. пер. с польск. В. Ф. Конновой. – М.: Прогресс, 1973. стр.5, 36.

<sup>15</sup> Морковкин В. В. Учебный словарь сочетаемости терминов: теоретические основы // Торшина Л. М., Крюк Л. А., Пурков В. Н. Учебный словарь сочетаемости терминов. Технология металлов и материаловедение / Под ред. В. В. Морковкина. – М.: Русский язык, 1981. стр.253.

<sup>16</sup> Караулов Ю. Н., Молчанов В. И., Афанасьев В. А., Михалев Н. В. Анализ метаязыка с помощью ЭВМ. – М.: 1982. стр.6.

<sup>17</sup> Караулов Ю. Н. Лингвистическое конструирование и тезаурус литературного языка. – М.: 1981.

talablaridan kelib chiqib, mumkin qadar ko'proq leksik birliklarni qamrab oladigan fransuzcha-o'zbekcha lug'atni yaratishga ehtiyoj orta bordi. Lug'at so'zligiga 1959-yilda nashr etilgan "O'zbekcha-fransuzcha lug'at"dan eng ko'p qo'llanuvchi so'zlar intuitiv yo'l orqali tanlab olingan va ular fransuz tiliga tarjima qilingan. Lug'atni tuzishda fransuzcha sinonimik uyani tashkil qiluvchi so'zlarning ma'nodoshlik munosabati "Fransuz tili sinonimlari lug'ati" asosida tekshirib chiqilgan va o'zbekcha so'zlarning qanchalik to'g'ri tarjima qilinganligi va ma'nolarining ochib berilganligini isbotlash uchun ko'p o'rinlarda so'z birikmalaridan va qisqa jumalardan iborat illyustrativ misollar tarjimasini bilan keltirilgan. Ba'zi lug'at maqolalarida ma'noni maromiga yetkazib berish, tarjimaning aniq va tiniqligini ta'minlash uchun esa misol o'rnida maqol va matallardan ham foydalanilgan. 1988-yilda chop qilingan T.Aliqulov, Sh.Xaydarovlarning "Fransuzcha-o'zbekcha lug'at"i esa fransuz tilida keng ishlatiladigan, kundalik turmush va o'qish-o'qitish jarayonida tez-tez uchraydigan 10 mingdan ortiq so'zni o'z ichiga oladi. Lug'atga so'z tanlashda mualliflar respublika oliy o'quv yurtlari uchun nashr etilgan fransuz tilidagi darsliklar, qo'llanma va lug'atlarni asosiy manba sifatida olishgan. T.Aliqulovning 1976-yilda nashr qilingan "Fransuzcha-o'zbekcha lug'at minimum"ining birinchi qismida mazkur lug'atga kiritilgan fransuzcha so'zlar va ularning tarjimasini illyustrativ misollar bilan berilgan. Ikkinchi qismida esa shu lug'at minimumga kiritilgan faqat fransuzcha so'zlar ro'yxati keltirilib, ularning aktiv yoki passivligiga yulduzcha belgisi bilan faqat passiv leksikaga ishora berilgan.

O'quv lug'atlarining ham tipologiyasi, so'zlar ma'nolarining lug'atlardagi ta'rifi va qo'llanilishi shu bilan izohlanadi. Hozirgi kunga kelib leksikani o'rganishga tizimli yondashuv qaror topdi. Leksikografiyada bunday yondashuv tilni parametrlash g'oyasida tilning asosiy parametrlarini lug'aviy aks ettirishda to'liq amalga oshirishni ta'minlaydi.

Yagona mezonlarni, yondashuvlarni, usullarni ishlab chiqish – juda murakkab vazifa bo'lib, uning yechimi lug'atda sezilarli joyni egallovchi ko'p ma'noli so'zlarni leksikografik tasvirlashning prinsiplarini va usullarini keyinchalik ishlab chiqishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bu ishlarni amalga oshirmasdan turib, ularni juda shartli tasvirlashni tubdan yaxshilashni iloji yo'q.

**"O'quv lug'atlarining turlari va lug'at tuzish tamoyillari"** nomli uchinchi bobda o'quv lug'atlarining turlari va ikki tilli o'quv lug'atlarining turlari, lug'atda ma'no muammosi, fransuzcha-o'zbekcha lingvistik terminlar lug'ati tuzish tamoyillari tadqiq qilinadi.

O'quv lug'atlarining markaziy zvenosi "universal", ko'p maqsadli va ko'p tomonli lug'at sanaladi. L.V.Sherbaning fikriga ko'ra, umumiy leksikografiyada bo'lgani kabi, bunday zveno bo'lib izohli akademik lug'at chiqishi kerak<sup>18</sup>. Bunday lug'atni tuzishning zarurligi haqida ancha ilgari so'z yuritilgan. Mashhur fransuz yozuvchisi Anatol Fransning yozishicha, "lug'at-alfavit tartibida joylashtirilgan voqelikdir". Bunda borliqdagi jamiki narsa, hodisa va voqealar har bir tilning lug'at boyligida aks etadi, degan ma'no kelib chiqadi. Lug'atlarning 50 dan ortiq turlari

---

<sup>18</sup> Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. – В.кн.: Языковая система и речевая деятельность. Л.: Наука, 1974. стр.12

mavjud bo'lib, bular: **Izohli lug'atlar** – bu turdagi lug'atlar bir tilli bo'lib, lug'at ichiga kiritilgan so'z va iboralarga bir tilda izoh beriladi va ma'lum sohaga tegishli so'z va terminlarni tushuntirib beriladi.

**Tarjima lug'atlar** – bu turdagi lug'atlar ikki yoki undan ortiq tilli bo'lishi mumkin. Bunday lug'atlarda bir tilga oid so'z va iboralar ikkinchi, uchinchi tillarga tarjima qilinadi. Bu turdagi lug'atlarga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. **Imlo lug'atlari** – bu lug'atlar so'zlarning yozilishi, imlo qoidalarini o'z ichiga oladi va unga kirgan so'zlarning tarjimasi ham, izohi ham bo'lmaydi. Imlo lug'atlari hamma uchun birdek ahamiyatlidir. Bu turdagi lug'atlarga misol tariqasida S.Ibrohimov va M.Rahmonovlarning “O'zbek adabiy tilining imlo lug'ati” (Toshkent, 1956)ni keltirishimiz mumkin. **Maxsus lug'atlar** – bu lug'atlar fan va texnikaning ma'lum bir yo'nalishiga, tarmog'iga bag'ishlangan bo'lib, u ham izohli, ham tarjima lug'ati bo'lishi mumkin.

O'quv lug'atiga, eng avvalo, “lug'at” tushunchasining barcha xarakteristikallari xosdir. Shu munosabat bilan lug'atlarning tipologiyasi, eng avvalo, u yoki bu lug'at tipining “qandaydir tilning real ishlayotgan tizimining qandaydir muhim jahatiga” mos kelishi asosida tuzilishi kerak<sup>19</sup>.

“O'quv” tushunchasi, o'z navbatida lug'atning xarakteristikasida iz qoldiradi - har qanday o'quv lug'ati ta'limning ma'lum bosqichiga, o'qitilayotganlarning yoshiga mo'ljallangan, u tilga o'rgatishning umumiy prinsiplari asosida tuziladi va tilning u yoki bu jihatini o'zlashtirishga maqsadli ko'rsatmadan kelib chiqadi, ya'ni shu bilan xarakterlanadiki, “o'quv lug'atining metodik yo'naltirilganligi va mo'ljallanganligi” tushunchaga olib keladi<sup>20</sup>. Lug'atning metodik yo'naltirilganligi o'quv lug'atlari so'zliklarining aniq bir maqsadga qaratilgan tanlab olishda ham, so'zlar ma'nolarining so'zlarning – aniqlovchilarning cheklangan soni asosida izohlashning o'ziga xos xususiyatida ham, so'zlarning birga bog'lana olishini berish usullari va uning boshqa shu kabi xarakteristikalarida ham namoyon bo'ladi.

Leksikani o'quv-ta'lim maqsadlarida tizimli tasvirlash munosabati bilan o'quv lug'atlarining tipologiyasini belgilash harakati L.A.Novikov tomonidan amalga oshirilgan. U eng muhim vazifa sifatida faol tipdagi lug'atlarni (so'z birikmalari lug'ati, ideologik lug'at, sinonimlar lug'ati) yaratishni ilgari suradi, ularni passiv tipdagi (masalan, izohli) lug'atlarga qarama-qarshi qo'yadi<sup>21</sup>. Lug'atlarning xilma-xil tiplari so'zni o'rganishning jihatlariga mos ravishda L.A.Novikov tomonidan ajratib ko'rsatiladi: so'zning qo'llanilish darajasi – chastotali lug'at; so'zning strukturasi va so'z yasash – so'z yasovchi, teskari lug'at; frazeologik lug'at; so'z semantikasi: maydonlar, mavzular bo'yicha – ideografik, tematik; ma'noning o'xshashligi bo'yicha – sinonimik; ma'noning zidligi bo'yicha – antonimlar lug'ati; so'z va nutq sohasi – uslub, so'z qo'llash lug'ati, terminologik lug'at va boshqalar<sup>22</sup>.

<sup>19</sup> Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. – В.кн.: Языковая система и речевая деятельность. Л.: Наука, 1974. стр.12-22-35.

<sup>20</sup> Щерба Л.В. Опыт общей теории лексикографии. – В.кн.: Языковая система и речевая деятельность. Л.: Наука, 1974. стр.3-4

<sup>21</sup> Новиков Л.А. Учебная лексикография и ее задачи. – Вопросы учебной лексикографии. Т. I. – М.: Изд. МГУ, 1969. стр.25.

<sup>22</sup> Новиков Л.А. Учебная лексикография и ее задачи. – Вопросы учебной лексикографии. Т. I. -М.: Изд. МГУ, 1969. стр.3-7

Leksikani qo'llash qoidasi, ma'lumki, omillarning ikkita qatori bilan tartibga solinadi: semantik – qanday ma'no, qanday ahamiyat, mazmunni so'z bilan ifodalash mumkin va kommunikativ munosabatning qanday sohalarida, usullarida, nutq vaziyatlarida aynan shu so'zni boshqalardan, o'sha ma'noni anglatuvchilar qatoridan ajratib ishlatish asoslangan, o'rinli, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, nutqda so'zni tanlash semantik va tematik-situativ omillari bilan aniqlanadi, aynan shuning uchun bu prinsiplar asosida birinchi navbatda lug'atni tizimlashtirish zaruriyati paydo bo'ladi.

Leksikaning tizimli xususiyatlari, leksik semantika, odatda, lug'atlarda leksikaning tasnifidan alohida o'rganiladi. Y.N.Karaulov leksikaning semantik va lug'aviy jihatlarini mustaqil ko'rib chiqishni rad etish va ularni birlashtirishga harakat qilish zarur deb hisoblaydi, chunki "shunday universal jihatlar borki, u leksik semantikaning xususiyatlari bilan yuzaga keladi va aynan lug'atda leksik belgilarni shakllantirishning alohida usuli sifatida namoyon bo'ladi". Keyinchalik: "Ideografik lug'atning strukturalari – leksikaning tasnifi, so'zlarning ta'rifi, lug'at birliklari o'rtasidagi semantik munosabatlar haqidagi masala – leksikografiyadan tashqariga chiqadi, leksikologik, ya'ni obyektning o'zining tizimliliigi masalalari hisoblanadi"<sup>23</sup>.

Ideografika bo'yicha hozirgi tadqiqotlarda eng muhim fikr shuki, leksik-semantik tizimni tasvirlashga faqat lug'atlar tezauruslar shaklidagina erishish mumkin. Leksik-semantik tizimning to'liq xarakteristikasi, so'z ma'nolarining barcha elementlarini ochib berish faqat lug'at tezaurus shaklidagina mumkin, unda paradigmatic munosabatlar bilan bir qatorda leksik birliklarning namunali birika olishi ham aks etgan.

O'quv lug'ati, aksincha, bilimlar va ko'nikmalarning shakllanish jarayonida tillar o'rtasidagi aloqalarning in'ikosi hisoblanadi. U tilni o'rganayotgan shaxslarning ruhiyatiga qaratilgan. Uning vazifasi – insonda chet tilini shakllantirish bo'lib, o'quv turidagi ikki tilli lug'at pedagogika va didaktikaning vazifalari uchun begona emas.

Odatda, o'quv lug'atlari "kichik shakldagi" lug'atlar sifatida xarakterlanadilar. So'zlarni ikki tilli o'quv lug'atlarida berishning alohida prinsiplari, birinchidan, ularning hajmi kichikligi, ularni tuzish osonligi bilangina belgilanmaydi, ikkinchidan, o'quv lug'ati ikki tilli filologik lug'atga qaraganda so'zlikni sinchiklab tanlashni, ma'nolarni berishga tabaqalashtirilgan yondashuvni, ya'ni so'zning semantik strukturasini sinchiklab ishlab chiqishni, ma'nolarni tasniflashni va tizimlashtirishni talab qiladi; uchinchi, o'quv lug'atida boshqa tilda shunday ekvivalentni tanlash kerakki, u chet tilini o'rganuvchiga faqat maksimum ma'lumotni bevosita emas, balki assotsiativ tarzda yetkazadi. Bu esa qo'shimcha qiyinchiliklar bilan bog'langan. Ikki tilli o'quv lug'atini tuzish bilan bog'liq muammolar ro'yxatini ko'paytirish mumkin edi, biroq, sanab o'tilganlarning o'zi birinchi navbatda lug'atning maqsadli lingvodidaktik ko'rsatmasiga, ya'ni u tor didaktik vazifaga javob berishi qanchalik qiyin ekanligini ko'rsatib berish uchun yetarlidir.

Ilmiy asosda muvaffaqiyatli bajarilgan har bir umumtil lug'ati til rivojlanishida alohida bosqich yoki davrni aks ettirishdan iborat bo'lmay, shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnik umumiy darajasini o'ziga xos

---

<sup>23</sup> Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. стр.22-37.



aks ettirishdan ham iboratdir. “XX asrning barcha katta lug‘atlari tashabbuskorlari eng boshidan boshlab, o‘sha mamlakatlar madaniy kuchlarini bu ishlarni bajarishga rahbarlik qilgan tashkilotlar va bu ishda o‘z xizmatlarini taklif etgan shaxslar, muvaffaqiyat qozongan holda va faqat tashabbuskorlar tor doirasi va tuzuvchilar, balki butun millatga shon - shuhrat keltirishini, rivojlangan dunyo madaniy obro‘sini ko‘tarishga va ishontirishga intildilar”<sup>24</sup>. Oldimizga qo‘ygan maqsad, ya‘ni “fransuzcha-o‘zbekcha” lingvistik terminlar lug‘atini tuzish uchun prinsiplar ishlab chiqishimiz joiz. Quyida lug‘at tuzishning bir qancha prinsiplari haqida fikr yuritamiz.

**Tematik prinsip.** Tematik tamoyilning asosiy maqsadi – so‘zlik vokabulani tanlashda lug‘at mavzusi tilshunoslikka oid so‘zlarga tayaniladi. Asosiy mavzu tamoyilga asoslanib, talaba lug‘atdan aynan shu vokabula, ya‘ni bosh terminga tayangan holda o‘ziga kerakli terminni topa oladi.

